XALQ DEPUTATLARI G‘IJDUVON TUMANI KENGASHINING
QARORI

2022 - yil 16 - dekabr VI-83-228-2-34-K/22 G‘ijduvon tuman hokimligi

G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasiga asosan tuman hokimligining G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILDI:

1. Tuman hokimligining hisobotiga asoslanib, G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 21-fevraldagi VI-57-28-2-34-K/22-sonli qarori, tuman hokimining 2022-yil 23-fevraldagi 10-2-34-F/22-sonli farmoyishi bilan yo‘naltirilgan mablag‘dan 4800,0 (to‘rt million sakkiz yuz) ming so‘m hamda xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 25-martdagi VI-61-48-2-34-K/22-sonli qarori, tuman hokimining 2022-yil 25-martdagi 23-2-34-F/22-sonli farmoyishi bilan yo‘naltirilgan mablag‘dan 25000,0 (yigirma besh million) ming so‘m, jami 29800,0 (yigirma to‘qqiz million sakkiz yuz) ming so‘m mablag‘lar iqtisod qilinganligi inobatga olinsin.

2. Tuman hokimligiga Fuqarolik ishlari bo‘yicha G‘ijduvon tumanlararo sudining 12 ta ijro varaqalariga asosan davlat boji uchun 25517,0 (yigirma besh million besh yuz o‘n yetti) ming so‘m hamda 2023-yil obunasi uchun 4283,0 (to‘rt million ikki yuz sakson uch) ming so‘m mablaglarni tuman mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (G‘.Tilloyev)ga:

O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi talablari asosida tuman mahalliy byudjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari G‘ijduvon tuman Kengashi raisi



Sh.Ashurov